



## BO'LAJAK GEOGRAFIYA O'QITUVCHI-TADQIQOTCHINI TAYYORLASHNING O'ZIGA XOS JIHLARI

**Sangirova Mahfuza Hasanovna**

*Jizzax Davlat pedagogika universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedraasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Bo'lajak o'qituvchi o'z kasbiy mahoratining shakllantirilganligini bildiruvchi kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar yigindisiga, pedagogik muomala madaniyatiga ega bo'lishlik kasbiy-pedagogik omilkorlikning asosiy poydevori hisoblanib, o'qituvchining kasbiga nisbatan shaxsiy tavsifnomasi hisoblanadi.*

**Annotation:** *The future teacher's professional knowledge, skills, and the culture of pedagogical behavior, which indicate the formation of his professional skills, are considered the main foundation of professional-pedagogical effectiveness and are considered a personal description of the teacher's profession.*

**Kalit so'zlar:** *pedagog, muloqot, kommunikatsiya, kasbiy kompetentlik, professional kompetentlik, kognitiv, individual, ijodiy tashxis.*

**Key words:** *pedagogic, dialogue, communication, professional competence, professional competence, cognitive, individual, creative diagnosis.*

**Kirish.** Hozirgi zamon pedagogi – faqat dars beruvchi o'qituvchi emas, o'quvchi-talaba qanday o'qiyotgan va rivojlanayotganligini tushunadigan va his etadigan shaxsdir. Pedagogik ijodni biz ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan, o'qituvchi uchun sifatli yangi mahsulotlarni yaratishga qaratilgan, uning alohida faoliyat turi sifatida qaraymiz. Ijodiy faoliyat jarayonida o'qituvchida yangi nazariy bilimlar hamda amaliy ko'nikmalar shakllanadi. Pedagogik ijodning shaxsiy jihati o'z ichiga ijodiy shaxs uchun xos bo'lgan, barcha psixik sifatlarni – tasavvur, aqlning moslashuvchanligi, divergent tafakkur, ichki motivatsiya hamda boshqa psixik xususiyatlar birligini qamrab oladi.

Tadqiqotchilar bo'lajak geografiya o'qituvchisining ijodiy imkoniyati kasbiy tayyorgarlik jarayonida shakllanadi, hosil qilinadi va keyinchalik uning kasbiy faoliyatida rivojlanadi deb hisoblaydilar. Bo'lajak o'qituvchining ijodiy imkoniyatlari resurslariga ular o'qituvchining madaniy, kasbiy va umumta'lim darajasini, uning ehtiyojlari va qiziqishlari, ya'ni umuman uning faoliyati va xususan kasbiy faoliyati motivlari belgilarini kiritadilar. Bo'lajak geografiya o'qituvchisining ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish jarayonining asosiy talab etilmagan resurslari uning o'zida emas, balki uning to'liq foydalanilmagan imkoniyatlarida va mazkur imkoniyatlardan foydalanishga yondashuv tizimida yotadi. Bo'lajak o'qituvchining ijodiy shaxsini shakllantirishga mos ijodiy muhit yordam berishi mumkin.

Muloqot bilan kommunikatsiya tushunchalari bir-biridan quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi:



amaliy, moddiy, ma'naviy, axborot tavsifida muloqot;  
ma'lumotlarni jo'natish, o'zaro axborot almashish kommunikatsiya

O'qituvchining kasbiy mahorati pedagogik faoliyatda namoyon bo'ladi va yillar o'tgan sari sayqallanib boyib boraveradi. Mahorat – o'qituvchi shaxsini yuqori darajadagi kasbiy bilim, umuminsoniy yo'nalish, pedagogik qobiliyat va pedagogik texnikani pedagogik faoliyatda o'z o'rniga qo'yib foydalanishda mukammal safarbar etishini ta'minlaydi.

Masalaning bunday qo'yilishi tufayli zamonaviy ta'limda bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligi muammosini ko'rib chiqish zarurati yuzaga keladi. Pedagogik adabiyotlarda "kasbiy kompetentlik" tushunchasidan tashqari o'qituvchining "tayyorgarligi" va "mahorati" tushunchalari ham mavjud.

Odatda tadqiqotchilar tomonidan tayyorgarlik muayyan faoliyatni boshlashdan oldingi holati sifatida qaraladi V.A.Slastenin kasbiy tayyorgarlik mohiyatini yaxlit holat, shaxsning asosiy imkoniyatlariga bog'liq bo'lgan uning integrativ ifodasi, gnoseologik, akseologik, ijodiy va kommunikativ jihatlarida qaraladigan pedagogik faoliyat sub'ekti sifatida tushunadilar.

O'qituvchining mahorati – bu integral sifat sifatida «haqiqiy o'z kasbida ishlovchi va bolalarni sevuvchi har bir pedagog yetisha oladigan yuqori va doimiy takomillashtiriladigan tarbiyalash va o'qitish san'ati tushuniladi. Pedagog o'z ishining ustasi – bu o'z fanini chuqur biladigan, tegishli fan yoki san'at sohalari bilan yaxshi tanish bo'lgan, umumiy va bolalar psixologiyasi masalalarida amaliy bilimlarga ega bo'lgan, o'qitish va tarbiyalash metodikasini mukammal biluvchi yuqori madaniyatli mutaxassis hisoblanadi”

A.C.Makarenko, Yu.P.Azarov, N.V.Kuzmina ishlarida o'qituvchining mahoratga erishish yo'llari belgilangan. Biz o'qituvchining kasbiy kompetentligini o'qituvchi kasbiy tayyorgarligi va mahoratining asosiy toifasi sifatida aniqlaymiz

Ixtiyoriy kasbiy faoliyat, jumladan pedagogik faoliyat mutaxassisda kasbiy kompetentlikning mavjudligi nazarda tutilgan.

*Kompetentlik* – bu ma'lum bilim va tajribalar doirasiga egalik; kompetent – (lot. *somretent*– qobiliyatli) – biluvchi, ma'lum bir sohada bilimga ega bo'lgan; o'zining bilimi yoki vakolatlari bo'yicha biror-bir ishni bajarish yoki hal qilish; biror-nima to'g'risida fikr bildirish huquqiga ega bo'lgan

*Kasbiy kompetentlik* – ko'p qirrali va ko'p jihatli tushuncha, u jamiyatda sodir bo'luvchi o'zgarishlarga mos ravishda o'zgaradi hamda turli nuqtai nazarlar ostida ko'riladi.

Kasbiy kompetentlik o'z ichida falsafiy, psixologik, ijtimoiy, madaniy, shaxsiy tartibdagi jihatlarni qamrab oluvchi tizim sifatida ifodalanishi mumkin. Amerika ijtimoiy fanida kompetentli mutaxassis modeliga shuningdek tartib-intizomlilik, mustaqillik, kommunikativlik, o'z-o'zini rivojlantirishga intilish kiritiladi. Shved olimlari kasbiy kompetentlik – bilimlarning intellektual, ma'naviy, ijtimoiy, estetik, siyosiy jihatlari integratsiyasi deb hisoblaydilar.





Ko'pgina mahalliy hamda xorijiy tadqiqotchilar bo'lajak geografiya o'qituvchisining kasbiy kompetentligi kasbiy bilimlar va ko'nikmalar, qadriyatli yo'nalishlar, uning faoliyati motivlari, nutqida, muloqot uslubida aks etuvchi umumiy madaniyati, o'zining ijodiy imkoniyatini rivojlantira olish qobiliyati, shuningdek, fanni o'qitish metodikasini egallaganligi, talabalarni tushunish va ular bilan o'zaro aloqa qilish qobiliyati, ularga hurmat, kasbiy ahamiyatli shaxsiy sifatlari bilan aniqlanishi to'g'risidagi fikrlarga qo'shiladilar. Mazkur komponentlardan hatto birining ham bo'lmasligi butun tizimni buzadi va pedagog faoliyatining samaradorligini pasaytiradi.

*Professional-pedagogik kompetentlik* pedagogik voqelikni tizimli tushunish va unda tizimli ish ko'rish ko'nikmasini o'z ichiga oladi. *Professional kompetentlik* esa o'z faoliyat sohasida erkin mo'ljal olishni ko'zda tutadi.

Kompetentlik uch muhim omil bilan bog'liq bo'lgan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishni nazarda tutadi:

boshqa odamlar bilan munosabatlar madaniyatini;

o'z faoliyat sohasi haqida axborot olish ko'nikmasini;

o'quv axborotini boshqalarga berish ko'nikmasini.

Shunday qilib, professional-pedagogik kompetentlik quyidagi asosiy komponentlar bilan tavsiflanadi:

shaxsiy-insoniy mo'ljal;

pedagogik jarayonni tizimli idrok etish;

o'z faoliyati sohasida mo'ljal ola bilish;

pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirganlik.

Shu tariqa, kasbiy kompetentlik bo'lajak o'qituvchining muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatiga, uning ahamiyatiga va uni amalga oshirishda qo'llaniladigan, barcha bilimlar hamda ko'nikmalar birligidagi ma'lum bir o'ziga xos vazifalarga munosabati sifatida ta'riflanishi mumkin. Bugungi kunda bo'lajak o'qituvchi oz darajada "fan o'qituvchisi" rovida va ko'proq darajada ijtimoiy tarbiyaviy muhit tashkil etuvchisi rovida ifodalanadi, birinchi darajali vazifalar o'quvchining o'qishning barcha bosqichlaridagi maksimal faolligi tamoyili bo'yicha uning o'qituvchi bilan o'zaro munosabatlarini qurishga imkon beruvchi yondashuvlarni izlash hisoblanadi. O'qituvchi va o'quvchining ijodiy hamkorligi o'quv vaziyatining qolgan barcha tavsiflariga ma'lum talablarni qo'yadigan asos sifatida xizmat qiladi.

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligi faoliyatning boshqaruv, pedagogik, kommunikativ, diagnostik va tadqiqotchilik komponentlaridan iborat bo'lib, maqsadlarga erishish bo'yicha pedagogik vazifalarni optimal ravishda amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kasbiy bilimlar va ko'nikmalarning shakllanganligi darajasi, kasbiy ahamiyatli shaxs sifatlarning rivojlanish darajasi bilan aniqlanadi.

### **Bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligi**

Boshqaruv

Kommunikativ

Tadqiqotchilik



Shaxsning kasbiy ahamiyatli sifatleri

«Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi» degan g'oya doirasida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshiramiz, deb quyidagilarni ta'kidlagan Prezident Sh.Mirziyoyev:

birinchidan, yosh avlodga bog'cha, maktab va oliygohda sifatli ta'lim-tarbiya berishni yo'lga qo'yamiz, ular jismoniy va ma'naviy sog'lom, vatanparvar insonlar bo'lib ulg'ayishi uchun barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar etamiz; ikkinchidan, yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan insonlar etib voyaga yetkazamiz;

uchinchidan, o'g'il-qizlarimizni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan zamonaviy kasb-hunarlariga o'rgatish, ularda tadbirkorlik ko'nikmalari va mehnatsevarlik fazilatlarini shakllantirish hamda tashabbuslarini ro'yobga chiqarish, ish va uy-joy bilan ta'minlashga ustuvor ahamiyat qaratamiz.

Bir so'z bilan aytganda, bola tug'ilganidan boshlab, 30 yoshgacha bo'lgan davrda uni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydigan, hayotda munosib o'rin topishi uchun ko'mak beradigan yaxlit va uzluksiz tizim yaratiladi.

«Yangi O'zbekiston – maktab ostonasi, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi», degan g'oyani trening mashg'ulotlarida yoki debat orqali muhokama qilish maqsadga muvofiqdir.

Trening mashg'ulotlarida bo'lajak geografiya o'qituvchilarini kasbiy metodik tayyorlash jarayonini, ijodiy imkoniyatlari, ijodiy muhitni yuzaga keltirishni hamda kim bilan qanday ishlashga, nimaga e'tibor berishga, kinga qanday yordam berishga, kimni quvvatlashga imkon yaratadi. Ijtimoiy-psixologik treninglar, kouching treninglaridan foydalaniladi.

Debat – aniq tuzilgan va maxsus tashkil etilgan jamoatchilik fikr almashuvi, dolzarb masalalar bo'yicha ikki musobaqa guruhleri o'rtasidagi bahs. Ommaviy munozaralarning bu turi munozara ishtirokchilarining bir-biriga emas, balki uchinchi tomonni ularning to'g'riligiga ishontirishini ta'minlashga qaratilgan. Bahs-munozara ishtirokchilari tomonidan ko'tarilgan masala yuzasidan muayyan fikr hosil qilishga mo'ljallangan. Debat mavzusiga bo'lajak geografiya o'qituvchilarini kasbiy metodik tayyorlash jarayoni olinadi, guruhlar bahs-munozaraga kirishadi.

Qo'yilgan vazifalarni hal etish uchun ham nazariy va ham amaliy tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Nazariy metodlar tizimli yondashuv, ijodiy loyihalashtirish, modellashtirish, mavhumlashtirish, induksiya va deduksiyadan iborat bo'ldi. Amaliy metodlar anketa so'rovi, test, kuzatish, monitoringni tashkil etish, bo'lajak geografiya o'qituvchilari faoliyati natijalarini tahlil qilish, ilg'or pedagogik tajribani o'rganish va umumlashtirish, yangi tajribani yaratish, tadqiqotning olingan natijalarini amaliyotga joriy etish, bo'lajak geografiya o'qituvchilari uchun metodik ko'rsatmalarni, o'qituvchilar uchun metodik tavsiyalarni tayyorlashdan tashkil topdi.





Psixologik-pedagogik adabiyotlarning nazariy tahlili ko'rsatganidek, pedagogika oliy ta'lim muassasasi geografiya ta'limi yo'nalishi bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarlik ishlarini takomillashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri oliy ta'lim muassasalarida kasbiy metodik tayyorgarlik ishlari doirasida har bir bo'lajak geografiya o'qituvchisini ilmiy ijodga jalb qilishning kompleks tizimini va amalga oshirish orqali uning strukturasi innovatsion o'zgarishlarni kiritish hisoblanadi.

**Xulosa.** Bilimlarning fanlararo integratsiyasi asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarini tayyorlash bo'yicha zamonaviy ilg'or tajribani umumlashtirish va uni ta'lim mazmunida loyihalashtirish mumkin. Zamonaviy ilmiy bilishga xos bo'lgan integrativ yondashuv o'rganilayotgan hodisalarni ularning boshqa hodisalar va jarayonlar bilan ko'p tomonlama aloqalarida umumlashtiradi va chuqurlashtiradi; zamonaviy fanning holati va rivojlanish istiqbollari to'g'risidagi umumiy yaxlit tasavvurni shakllantiradi; bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentliklarining asosiy komponenti sifatida tadqiqotchilik kompetentligini shakllantirishga yordam beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risida Qonuni. 2020 yil 23 sentabr.
2. Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining O'RQ-406-son Qonuni. 2016 yil 14 sentabr.
3. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-son Farmoni. 2017 yil 7 fevral.
4. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son Farmoni. 2019 yil 8 oktabr.
5. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2829-Qarori. 2017 yil 14 mart.
6. Jurayev B.N Pedagogik va psixologik fanlarni o'qitish metodikasi. Buxoro. 2022.
7. Ataeva N. va b.q. Umumiy pedagogika. Darslik. – T., 2013. – 928 b.
8. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti.: Dis. ... ped.fan.dok. – T., 2007. – 305 b.